

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Bababekova Nargiza Baxtiyarovna

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida katta
o‘qituvchisi*

azmyus0960@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakat iqtisodiyotida axborot texnologiyalarning izchil rivojlanishi hosilasi sifatida raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining nazariy asoslari o‘rganib chiqilgan holda asosli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, qonuniy baza, huquqiy tartibot

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И ПРАВОВЫХ ОСНОВ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Бабабекова Наргиза Бахтияровна

*Старший преподаватель кафедры “Экономика отраслей” Ташкентского
университета прикладных наук (UTAS)*

azmyus0960@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические основы развития цифровой экономики как производной от последовательного развития информационных технологий в экономике страны.

Ключевые слова: цифровая экономика, правовая база, правопорядок.

ANALYSIS OF THE THEORETICAL AND LEGAL FRAMEWORKS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN

Bababekova Nargiza Bakhtiyarovna

*Senior Lecturer at the Department of Economics of Industries, Tashkent University
of Applied Sciences (UTAS)*

azmyus0960@gmail.com

Abstract: In this article, reasonable proposals were developed with a study of the theoretical foundations of the development of the digital economy as a derivative of the consistent development of Information Technology in the country's economy.

Keywords: *digital economy, legal base, legal enforcement.*

KIRISH

Hozirgi butun dunyoda amalga oshirilayotgan axborot texnologiyalarning izchil rivojlanishi jumladan raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, loyihalari asosan barcha mamlakatlar turli darajalarda duch keladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda samarali usul sifatida qo'llaniladi. Dunyo aholisining yarmidan ko'pi shaharlarda yashayotganligini hisobga olsak, raqamli iqtisodiyot tizimini joriy etish va rivojlantirish masalasi kun sayin dolzarb bo'lib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot va uni yanada rivojlantirish zarurati, shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarning axborot texnologiyalar asosida ilmiy-texnikaviy rivojlanish darajasini, jamiyatning madaniy va ijtimoiy-ma'naviy hayotini yaxshilash talab etmoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni samarali tashkil etishdan maqsad xizmatlarning samaradorligini oshirish va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ularni rag'batlantirish masalalari shuningdek, shaharni yangi zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda hayot sifatini yaxshilash lozim.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bozor subyektlarining faoliyatida raqamli transformatsiyalarning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy isloh qilishning hozirgi bosqichida atrof-muhit jamiyatning institutsional tuzilishiga xos xususiyatlarini keltirib chiqarmoqda va bu asosda yangi tushunchalar va yondashuvlarni shakllantirishga zarurat tug'diradi.

Ma'lumki, Muhtaram Prezidentimizning 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "Elektron Hukumat" tizimini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida axborot tizimlarini tatbiq etish va jamoat tartibini ta'minlash vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 27 iyuldagi PQ-3150-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi "Uzinfokom" negizida Davlat

axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator tashkil etish va yagona integrator oldiga bir qator vazifalar qo'yildi [1].

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, unda mazkur tizimni taraqqiy ettirishga doir ko'plab qilinishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risidagi PQ-3832-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-6079-sonli qarorlariga binoan respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, yaqin istiqbolda barcha tarmoq va sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilganligini ko'rsatib o'tish mumkin [2].

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish vazifasi milliy statistika doirasida ham bir qancha muhim ishlarning bajarilishini, xususan, milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarini raqamlashtirishga oid indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi, mazkur tizim uchun ma'lumotlar bazasi shakllantirilishi, maxsus kuzatuvlar, so'rovnomalar, hisobot shakllari ishlab chiqilishini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitization ya'ni, raqamlashtirish, ba'zan esa digitalization ya'ni raqamlashtirilishi ma'nosini bildiradi.) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalaridir.⁴¹ Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.Ivanov "Raqamli iqtisod - haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit" deya takidlaganlar [3].

Tomsk davlat universitetining professori, R. Meshyaryakovning fikricha "raqamli iqtisod" atamasiga ikkita yondashish mavjud deb hisoblaydi. Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlar eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyot: birinchi yondashuv "klassik" deb nomlanib, klassik misollar - teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar). Ikkinchi yondashuv: "raqamli iqtisod" ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir [4].

M.L.Kalujskiy raqamli iqtisodiyot - iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir deb ta'riflagan [5].

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuyel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o'zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to'raligicha hali shakllanmagan va ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi raqamli iqtisodiyoti” turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, “Postindustrial iqtisodiyot” (D.Bell), “Axborotlashgan iqtisodiyot” (O.Toffler)[6], “Megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I.Niiniluto), “Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B.Geyts), “Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D.Tapskott) adabiyotlarini keltirish mumkin.

Manbalarda keltirilishicha “Raqamli iqtisodiyot” iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi. Raqamli iqtisod - bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u yerda ma'lum bir kiber-jismoniy (киберфизическая) tizim paydo bo'ladi [7].

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidir. Shuningdek, raqamli iqtisod rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan barcha arsani qamrab olishi mumkin, ya'ni mantiqiy sxemalarda namoyon bo'ladi. Hayotning o'zi esa bu “narsalarni” ishlab chiqarish, tarqatish, almashtirish va iste'mol qilish tizimiga aylantirishga imkoniyat yaratadi. Xaqiqatdan ham insonning ruhiy haqiqatida joylashgan dunyoning virtual qismidan oldin ishlab chiqarish kuchi bo'lmagan, yangi g'oyalar va mahsulotlar yaratilgan muhit emas edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Raqamli” davlatlar – ya'ni raqamli iqtisodiyot yuksak rivojlangan davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanadi. AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya hamda Gongkong raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlar 10 taligiga kiradi. Ushbu davlatlar tajribasini o'rganib chiqish va bular asosida harakatlanish ko'zlangan maqsadga tezroq erishishga yordam beradi.

Bugungi kunda Respublikada axborot-kommunikatsiya tarmog'ida xizmatlar turlarini o'stirish, soxaga yangi innovatsion uslublarni joriy etish maqsadida 2030-yilga qadar “Raqamli O'zbekiston” konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan ham choratadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Shu maqsadda axborot va aloqa sohasida

faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni haqidagi statistikaning tahlil etishimiz mumkin.

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha "Axborot va aloqa" sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

Tarmoqlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Axborot va aloqa - jami	6370	6427	6403	6975	7901	9517	10587	12204	10551
Kitoblar nashr qilish	84	87	114	122	145	193	217	242	232
Ma'lumotnoma va ro'yxatlar nashr qilish	21	15	5	7	7	8	7	11	11
Gazetalar nashr qilish	106	267	308	315	315	337	324	321	246
Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish	39	117	143	154	176	182	211	229	192
Nashirlik faoliyatining boshqa turlari	216	220	223	231	270	358	405	409	341
Kompyuter o'yinlarini chiqarish	82	171	83	90	109	136	130	156	171
Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish	122	109	201	206	248	315	352	425	494
Kino-videofilmlar, televidion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish	115	161	184	205	227	293	353	400	305
Kino- videofilmlar va televidion dasturlar tayyorlashning ishlab chiqarish bosqichi	12	23	39	44	42	53	59	63	44
Kinofilmlar, video va televidion dasturlarni tarqatish	46	43	44	50	46	49	47	49	42
Kinofilmlar namoyish qilish	95	82	87	87	95	99	84	95	70
Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat	125	100	88	71	76	84	77	71	44
Radioeshittirish	227	389	109	93	87	88	66	68	35
Televidion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat	99	81	76	91	92	106	106	107	90
Simli aloqa xizmatlarini taqdim etish	845	640	547	542	457	463	362	386	296

Simsiz aloqa xizmatlarini taqdim etish	1025	1255	1020	1065	1127	1382	1457	1588	1223
Yo‘ldosh vositasidagi aloqa xizmatlarini ko‘rsatish taqdim etish	16	11	7	8	20	24	22	25	16
Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish	368	245	538	606	805	1017	1255	1253	992
Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat	370	379	387	561	710	896	1121	1618	1602
Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari	169	175	249	272	309	387	461	536	583
Kompyuter uskunarini boshqarish bo‘yicha faoliyat	66	93	89	122	149	198	243	290	269
Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	1020	972	1018	1051	1217	1433	1596	1993	1694
Ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	92	107	224	317	396	510	628	704	604
Web-portallar	3	-	17	49	70	97	109	128	137
Axborot agentliklari faoliyati	454	253	215	207	188	175	171	197	188
Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko‘rsatish bo‘yicha boshqa faoliyat	553	432	388	409	518	634	724	840	630

Mazkur 1-jadvalda tarmoqlar kesimi bo‘yicha axborot va aloqa xizmatlar ko‘rsatishni yillar kesimida o‘sib borayotganligini, ayniqsa simsiz aloqa xizmatlarini taqdim etish va dasturiy ta’minot bo‘yicha xizmat turlarini jadal o‘sib borayotganligini ko‘rish mumkin.

2-jadval

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi (YAQQga nisbatan % da)

Ko‘rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
-----------------------	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------	-------------

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	1,9	2,1	2,3	2,0	1,7	1,9	2,5	3,3
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	1,8	2,0	2,1	1,8	1,5	1,6	1,7	1,9
AKT ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
AKT savdosi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1	0,1
AKT xizmatlari	1,6	1,8	1,9	1,7	1,4	1,5	1,6	1,8
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Elektron tijorat	-	-	0,0	0,0	0,1	0,1	0,6	1,2

Mamlakat yalpi ichki mahsulotida axborot biznesi ulushining ko‘payishi jamiyat rivojlanishining axborotlashgan jamiyat tomon harakatlanishini bildiradi. 2-jadval ma’lumotlaridan tahlil etishimiz mumkinki mamlakat YaIm hajmida AKT mahsulotlari hamda xizmatlarini sekin astalik bilan o‘shirib bormoqda. Bu yerda 2015-yilga qaraganda AKT sektori o‘rtacha 1.8 % ga o‘sganini, AKT ishlab chiqarish va AKT savdosi 0.1 probelda o‘zgarishsiz qolganini hamda AKT xizmatlari va elektron tijorat o‘rtacha 1.66 %ga o‘shirib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Bunday o‘shirishni mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan dasturlar bilan izohlasak bo‘ladi.

Shuningdek axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmini qiymatlarda ham tahlil etsak axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori o‘rtacha 8 yilda 23878.7 mlrd. so‘mlik o‘shirishga erishgan bo‘lsa, elektron tijoratning hajmi esa 9683.9 mlrd. so‘mga jadal o‘sganini ko‘rish mumkin. Aynan AKT xizmatlari yillar davomida yuqori o‘shirish suratida borayotganligini bu esa turli xizmatlar turlarini bozorda keng faoliyat yuritayotganligidan dalolat berishini kuzatish mumkin.

3-jadval

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
----------------	------	------	------	------	------	------	------	------

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	3 876,3	4 967,7	6 377,8	7 732,1	8 491,9	10 777,0	16 939,5	27 755,0
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	3 581,7	4 575,3	5 849,0	6 876,8	7 323,0	9 095,9	11 567,6	16 131,1
AKT ishlab chiqarish	141,7	127,2	238,3	301,9	279,4	540,1	503,3	820,3
AKT savdosi	140,8	228,0	281,6	236,2	293,3	252,3	367,8	580,8
AKT xizmatlari	3 299,2	4 220,1	5 329,1	6 338,7	6 750,3	8 303,5	10 696,4	14 730,0
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	294,6	392,4	518,7	750,1	908,9	1 089,7	1 464,6	1 929,9
Elektron tijorat			10,1	105,2	260,0	591,4	3 907,3	9 694,0

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi matbuot xizmati xabariga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasida O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlar belgilab olingan:

- davlat va xo‘jalik organlari, mahalliy davlat organlarining joylarda zarur axborot tizimlari va resurslarini, dasturiy ta‘minot va elektron xizmatlarning joriy qilinishini muvofiqlashtirishlarini belgilab olish;

- mamlakatda raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari bozorini, jumladan davlat xususiy sherikchiligi asosida texnopark va kovorking-markazlar faoliyatini tashkil qilish orqali xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish;

- zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasi, aloqa texnologiya va tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishni joriy qilishni muvofiqlashtirish;

- davlat boshqaruvida va iqtisodiyot sohalarida elektron xizmatlarni joriy qilish, elektron tijorat va dasturiy ta‘minot bozorini rivojlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni yuksaltirish;

- Internetning milliy segmentini, raqamli media-kontentni tashkiliy, moddiy-texnik va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- shahar va hududiy infratuzilmani boshqarishda foydalanish, xususan turar-joy va kommunal xizmat ko‘rsatish, transport logistikasi, xavfsiz va “aqlli shahar” uchun “aqlli tizim”larni ishlab chiqish;

- malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Shubhasiz raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi aholi bandligi sohasiga ta'sir qiladi.

Kelajakda quyidagi kasblar paydo bo'lishi mumkin:

- shaxsiy brendni boshqaruvchi;
- virtual advokat;
- davlat organlari vakillari bilan muloqot platformasi moderatori;
- infostyleist;
- raqamli lingvist;
- muddatli broker;
- interfeysi uslubchisi.

Raqamli iqtisodning shakllanishi muayyan bazaga ega bo'lishi kerak, bu quyidagicha bo'lishi lozim:

- raqamli infratuzilmani va aloqa standartlarini ishlab chiqish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- On-Line xizmatlarni kengaytirish;
- fuqarolar uchun tarmoq ichidagi va On-Line kommunikatsiyalarga bepul kirishni yaratish;
- raqamli ekotizimlarda axborot oqimlari va bilimlarni boshqarishni takomillashtirish.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion faoliyatni oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish lozim.

Biz mintaqaviy rivojlanish sohasida to'rtta strategik vazifani belgilashni taklif qilamiz:

- Birinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida
- hududlarning raqobatdoshligini oshirish va ularning resurs salohiyatini
- mustahkamlash;
- Ikkinchidan, inson resurslarini rivojlantirish;
- Uchinchidan, mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish hamda mintaqalarni rivojlantirish uchun institutsional sharoitlarni yaratish;
- To'rtinchidan, jarayonlarni samarali boshqarish va o'z vaqtida to'g'ri qaror qabul qilish uchun onlayn rejimda xo'jalik yurituvchi subyekt darajasida moliyaviy va

iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish uchun dasturiy ta'minotni taqdim etish uchun bevosita muloqot qilish va aloqa uchun aloqa tizimini yaratish kerak.

Ushbu vazifalar davlat tomonidan tadbirkorlik va kichik biznesni moliyalashtirishni maqsadli yo'naltirishda o'z vaqtida javob berish uchun mintaqaviy va davlat darajasida muntazam ravishda yangilanishi, qo'llab-quvvatlashi, monitoringini amalga oshirishi hamda muntazam yangilanishini taklif etadi.

XULOSA

O'zbekistonda raqamli texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribasi asosida takomillashtirish, Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish lozim.

Fikrimizcha, raqamli tizimlar uchun texnologiyalar va xizmatlarni o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

- axborot-kommunikatsiya tizimining rivojlangan tuzilmasi;
- obyektiv yo'naltirilgan guruhlarda ishtirok etadigan interaktiv jamoalar;
- axborot resurslari;
- ma'lumot bazasi;
- elektron o'zaro ta'sirlarning yangi shakllari;
- biznes, hukumat va jamiyatni integratsiyalashish uchun platforma;
- raqamli muhit.

Yuqoridagilarni hisobga olib, raqamli texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanish, ularning mavjudligi va sifati, tayyorgarlik bosqichlari va rivojlanishning turli darajalari, majburiy maktabgacha ta'limda texnik ko'nikmalar olish bo'yicha zarur ta'limning darajasini oshirishga alohida e'tibor berish kerak hamda korxonalar va tashkilotlarda oliy ta'lim va doktorantura ta'lim dasturlarini ta'minlashimiz kerak. Mintaqaviy darajadagi oqilona iqtisodiy tizimni shakllantirish barqaror iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash, mintaqaning rivojlanish sohalari va yo'nalishlarini nafaqat zamonaviy sharoitlarda raqamli shakllantirishni emas, balki birinchi navbatda, inson resurslarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yo'li bilan davlat-xususiy sektor hamkorligi asosida iqtisodiy va innovatsion rivojlanish sarmoyasi shakllantiriladi. Asosiy omillarni dasturiy ta'minotni faollashtirishga qaratilgan ommaviy axborotlashtirishni rivojlantirish, apparatni yangilash, tarmoq

texnologiyalarini rivojlantirish, tranzaksion sektorning o‘sishi hisoblanadi. Shu bilan birga, raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirishning g‘oyalarini tarqatish, axborot bozori sifatida tavsiflangan ijtimoiy - iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanishi sohasida iste‘molchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar o‘rtasidagi savdosi axborot mahsulotlari bozorini shakllantiradi. Ushbu yondashuv bir qator mamlakatlarda axborot industriyasining ustunligini kuchaytiradi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi borgan sari bilimga asoslangan va innovatsion asosida rivojlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 27 iyuldagi PQ-3150-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-6079-sonli qaror.

3. Алексеев И.В. Информационное обеспечение системы управления франчайзинговыми предприятиями / И.В. Алексеев, Е.В. Рибокене // Экономические и гуманитарные науки. – 2015. – №1 (276). – С. 105–110.

4. Кузовкова Т.А., Салютин Т.Ю., Кухаренко Е.Г. Методические основы и результаты интегральной оценки цифрового развития экономики и общества // Электронный научный журнал «Век качества». 2019. №3. С. 106-122. <http://www.agequal.ru/pdf/2019/319007.pdf>.

5. Жуковская И.Е. Совершенствование методологии использования информационно-коммуникационных технологий в статистической деятельности в условиях формирования цифровой экономики. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc). – Ташкент. 2020, –260 с

6. Jacob B., Desouza K.C. Big data in the public sector: Lessons for practitioners and scholars //Administration & Society. – 2017. – Т. 49. – №. 7. – С. 1043-1064

7. Gulyamov S.S., Digitalization of the education system in Uzbekistan. International scientific journal “Theoretical & applied science”. USA, 2020.10 volume 90. - 453-455 pp.

8. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Stataistika qo‘mitasi